



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



FOXP2 GENI VA TIL: SOTSIOLINGVISTIK TALQINNING CHEGARALARI

THE FOXP2 GENE AND LANGUAGE: A CRITICAL EXAMINATION OF THE BOUNDARIES OF SOCIOLINGUISTIC INTERPRETATION

Elova Dilrabo Quدراتillayevna

Filologiya fanlari doktori (PhD),

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti

E-mail: dilraboelova@gmail.com

ORCID: 0000-0002-2329-1811

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./WBUL3494](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./WBUL3494)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada FOXP2 geni atrofidagi “til geni” tushunchasi sotsiolingvistik va fanlararo nuqtayi nazardan tanqidiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda FOXP2 genining neyrobiologik funksiyalari bilan tilning ijtimoiy tabiatini farqlash zarurligi asoslab beriladi. Tilning biologik shartlanganligi masalasi Chomsky nazariyasi, tilning ijtimoiy realizatsiyasi esa Labov sotsiolingvistik modeli asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari FOXP2 genini tilshunoslik uchun bevosita empirik omil sifatida emas, balki til qobiliyatining biologik imkoniyatlarini belgilovchi fanlararo nazariy tushuncha sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *FOXP2 geni, til geni, til va biologiya, sotsiolingvistika, til qobiliyati, nutq va til farqi, biologik shartlanganlik, ijtimoiy til, fanlararo yondashuv.*

Annotation. *This study offers a critical sociolinguistic and interdisciplinary analysis of the concept of the “language gene” associated with FOXP2. The paper argues for a clear distinction between the neurobiological functions of FOXP2 and the social nature of language. While FOXP2 contributes to the biological capacity for speech production, language itself is shaped through social interaction and communicative practice. Drawing on Chomsky’s theory of biological preparedness and Labov’s sociolinguistic framework, the study demonstrates that FOXP2 should not be treated as a direct explanatory factor in linguistics, but rather as an interdisciplinary concept delimiting the biological conditions of linguistic activity.*

Keywords. *FOXP2 gene, language gene, sociolinguistics, biological foundations of language, language capacity, speech and language distinction, interdisciplinary linguistics.*

Tilshunoslikda tilning kelib chiqishi va faoliyat mexanizmlarini izohlash masalasi ilmiy bahslar markazida bo‘lgan. [Mahmudov, 1998]. XX asrning

ikkinchi yarmidan boshlab, tilning biologik asoslarini aniqlashga qaratilgan neyrogenetika va genetik tadqiqotlar kuchaydi. FOXP2 geni bilan bog'liq izlanishlar inson nutqining neyrobiologik mexanizmlarini tushinishda muhim ilmiy natijalarni taqdim etdi. Lai Simon tadqiqotlarida FOXP2 genidagi mutatsiya nutq-motor buzilishlarga olib kelishini aniqladi. [Cecilia S. L., Lai Simon E. Fisher, Jane A. 2001:519-523] Shundan so'ng, FOXP2 geni ko'plab ommabop va ilmiy adabiyotlarda “til geni” sifatida talqin qilinadi.

Ammo bunday yondashuv tilni murakkab ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki biologik mexanizm sifatida talqin qiladi. Tilshunoslikning, xususan sotsiolingvistikaning asosiy yutuqlari shuni ko'rsatadiki, til faqat neyron jarayonlar mahsuli emas, balki jamiyat, madaniyat va tarix bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy tizimdir [Labov, 1972; Trudgill, 2000]. Shu bois FOXP2 masalasini tilshunoslik doirasida talqin qilishda metodologik aniqlik va fanlararo muvozanat zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi - FOXP2 geni bilan bog'liq biologik izohlarning sotsiolingvistik chegaralarini aniqlash hamda til qobiliyatining biologik imkoniyat va ijtimoiy realizatsiya sifatidagi ikki darajasini konseptual jihatdan ajratib ko'rsatish.

Tilni biologik va ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilish. Tilning mohiyatiga doir yondashuvlar shartli ravishda biologik va ijtimoiy paradigmalarga bo'linadi. Biologik yondashuv vakillari til qobiliyatini inson miyasining genetik jihatdan belgilangan funksiyasi sifatida ko'radilar [Chomsky, 1965; Pinker, 1994]. Bu yondashuv tilni o'zlashtirish tezligi va universalligini izohlashda muhim bo'lsa-da, tilning real qo'llanilishi hamda ijtimoiy variativligini izohlashda asos bo'la olmaydi.

Ijtimoiy yondashuv, ayniqsa sotsiolingvistika, tilni jamiyat mahsuli sifatida talqin qiladi. W. Labov empirik tadqiqotlarda til birliklarining qo'llanilishi ijtimoiy omillar - yosh, jins, ijtimoiy tabaqa, hudud va kommunikativ vaziyat bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi [Labov W. 1972]. Shuningdek, N. Mahmudov va Abdurauf Fitrat tilning jamiyatda shakllanishi, madaniy va ruhiy olam bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi [N.Mahmudov. 1999:5, Abdurauf Fitrat. 1927].

Sotsiolingvistika tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo'lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadigan sohasidir. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog'liq bo'lgan nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, sotsiolingvistika – tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuyini o'rganuvchi

ilmiy-nazariy soha. Ushbu muammolarning ayrimlari (masalan, “til va jamiyat”) umumiy tilshunoslik doirasida ham o'rganiladi. Sotsiolingvistikaning fanlararo maqomi u foydalanadigan tushunchalar majmuyida namoyon bo'ladi. Demak, til tizimi biologik imkoniyatlar asosida shakllansa-da, uning real ko'rinishi va funktsionalligi ijtimoiy muhitda yuzaga chiqadi.

FOXP2 geni: neyrogenetik tadqiqotlar va ularning talqini. FOXP2 geni bilan bog'liq tadqiqotlar nutq-motor rejalashtirish jarayonidagi buzilishlarni o'rganish natijasida yuzaga keldi. Lai FOXP2 genidagi mutatsiya artikulyatsiya va fonologik ketma-ketlikni boshqarishda qiyinchiliklar keltirib chiqarishini aniqladi. [Cecilia S. L. Lai, Simon E. Fisher, Jane A. Hurst, Faraneh Vargha-Khadem, Anthony P. Monaco. 2001]. Paleogenetika asoschisi Svante Paabo rahbarligidagi tadqiqotda FOXP2 genining inson va boshqa primatlarda evolyutsion farqlanishini tahlil qilindi. [Enard W., Przeworski M., Fisher S. E., Svante P. 2002]

Shuningdek, FOXP2 geni tilning grammatik tuzilishi, semantik munosabatlari yoki pragmatik qoidalarini belgilamaydi. U nutqni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan biologik shart-sharoitlarga daxldor bo'lib, til tizimining ijtimoiy va madaniy qirralarini izohlay olmaydi. Ushbu fikrni asoslashda yapon neyrolingvisti Tadanobu Tsunoda tadqiqotlariga tayanamiz. Professor Tsunoda tadqiqotlarining markazida inson miyasining chap va o'ng yarim sharlari tomonidan turli xil tovush signallarining qabul qilinishi va qayta ishlanish mexanizmlari masalasi turadi. Olimning asosiy ilmiy xulosasiga ko'ra, insonning ona tili miya faoliyatida tovushlarni idrok etish va tasniflash strukturasi shakllantiruvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarida Tsunoda yaponlar va g'arb madaniyatiga mansub shaxslar o'rtasida tovushlarni idrok etish jarayonida sezilarli neyrofiziologik farqlar mavjudligini aniqlaydi. Jumladan, yevropaliklarda lingvistik va mantiqiy tovushlar, ya'ni nutq birliklari asosan chap yarim sharda qayta ishlansa, emotsional va nolingvistik tovushlar (musiqa, hayvonlar ovozi, tabiat shovqinlari) o'ng yarim shar faoliyati bilan bog'liq bo'ladi.

Yapon til muhitida voyaga yetgan shaxslarda esa mutlaqo boshqa manzara kuzatiladi: nafaqat nutq birliklari, balki tabiat tovushlari, qushlarning sayrashi, hasharotlar ovozi hamda hissiy undosh tovushlar ham chap yarim shar tomonidan qayta ishlanadi. Ushbu holat ilmiy adabiyotda “**The Japanese Brain**” (“**Yapon miyasi**”) fenomeni sifatida tavsiflanadi.

Olim ushbu farqlarning kelib chiqishini genetik omillar bilan emas, balki **lisoniy-madaniy muhit** bilan izohlaydi. Uning fikricha, yapon tilida unli tovushlar fonologik va semantik jihatdan muhim o'rin tutadi, shuningdek, yapon tilidagi ko'plab onomatopeya va tabiat tovushlarini ifodalovchi birliklar unililar ustuvorligi bilan ajralib turadi. Natijada yapon til muhitida shakllangan miya tabiat tovushlarini ham lingvistik signallar sifatida qabul qilishga moyil bo'ladi.

Mazkur nazariyani tasdiqlash maqsadida Tsunoda maxsus tajribalar o'tkazgan. Jumladan, etnik jihatdan yapon bo'lib, biroq xorijda (masalan, Braziliyada) tug'ilib ulg'aygan va ona tili sifatida portugal tilida so'zlashuvchi shaxslar tekshirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu shaxslarning miya faoliyati yapon til muhitida voyaga yetganlardan ko'ra, g'arb xalqlariga xos modelga yaqin bo'lgan. Bu holat miya faoliyatining shakllanishida irqiy mansublik emas, balki ona tili va til muhiti hal qiluvchi rol o'ynashini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Til qobiliyatini izohlashda Chomsky, Labov va FOXP2 tadqiqotlari uch xil darajani ifodalaydi. Chomsky (1965) tilning kognitiv-biologik tayyorgarligini, Labov (1972) tilning ijtimoiy realizatsiyasini, FOXP2 esa nutq faoliyatining neyrobiologik imkoniyatini ifodalaydi.



Ushbu uchlik model til hodisasini yaxlit tizim sifatida tushunish imkonini beradi. FOXP2 biologik imkoniyat darajasini, Chomsky kognitiv-struktur darajani, Labov esa empirik-ijtimoiy darajani ifodalaydi. Bu darajalarni bir-biriga tenglashtirish yoki birini ikkinchisi bilan almashtirish ilmiy asosga ega emas

Sotsiolingvistika tilni tarixiylik, hayotiylik, me'yoriylik va hududiylik mezonlari asosida tahlil qiladi. Ushbu mezonlarning barchasi ijtimoiy omillarga tayanadi. FOXP2 geni esa ushbu mezonlarning birortasini mustaqil ravishda izohlab bera olmaydi. Biologik determinizm tilni genetik mexanizm sifatidagina izohlaydi va uning madaniy hamda ijtimoiy mohiyatini inkor etadi.

Demak, FOXP2 geni sotsiolingvistika uchun bevosita tadqiqot obyekti bo'lmasa-da, tilning biologik va ijtimoiy jihatlari o'rtasidagi chegarani aniqlashtiruvchi fanlararo nazariy tushuncha sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning real mavjudligi va funksional qo'llanilishi genetik mexanizmlar bilan emas, balki ijtimoiy muloqot, diskursiv tajriba va madaniy kontekst bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press. 1965.



2. Enard W., Przeworski M., Fisher S. E., Svante P. Molecular evolution of FOXP2, a gene involved in speech and language. *Nature*, Volume 418, 869–872. 2002.
3. Abdurauf Fitrat. *Rahbari najot*. Tashkent, 1927.
4. Labov W. *Sociolinguistic Patterns*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press. 1972.
5. Cecilia S. L., Lai Simon E. Fisher, Jane A. Hurst, Faraneh Vargha-Khadem, Anthony P. Monaco. A forkhead-domain gene is mutated in a severe speech and language disorder. *Nature*, 2001, 519–523.
6. Mahmudov N. *Til*. Tashkent, 1998.
7. Mahmudov, N. *Ma'rifat ma'qullari*. Tashkent, 1999.
8. Pinker S. *The Language Instinct*. New York: William Morrow. 1994.
9. Trudgill P. *Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society*. London: Penguin. 2000.
10. Tsunoda, T. Ona tili va miya: Yapon olimining kashfiyotlari. 1981, *Kurier UNESCO*, 3, 10–13.